



FRAZEOLOGIZMLARLARNING SHAKLLANISH MASALALARI

Ixtiyorbek Norov

*Xalqaro innovatsiyalar universiteti
magistranti*

Annotatsiya: *Frazeologizmlar asosan shaxs tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, shaxsning u yoki bu tarzdagi tasavvurlari, hatti-harakatlari, fiziologik hamda psixik holatlarini ifodalaydi. Shuningdek, frazeologizmlar hayvonlar obrazini gavdalanitirish va muayyan kasb-korga bog'liqligi jihatidan ham shakllanadi.*

Kalit so'zlar: *Frazeologizm, leksema, obraz, emotsional frazeologizm, frazeo-semantik.*

Frazeologizmlarning shakllanish xususiyatlari leksemalarning shakllanishidan farqlanadi. Ularning shakllanishi turli davrlarda sodir bo'ladi va turli ijtimoiy-hayotiy voqealar, tasavvurlar, kishilar hayotiy tajribalarining umumlashuvi asosida ro'y beradi. Frazeologizm ma'lum bir obraz asosiga quriladi va shu obrazni gavdalanitirishda xar xil perdmel, voqea-hodisa, tasavvurlarning nomlaridan foydalaniladi. «Frazeologizmlarni shakllanish doirasi jihatdan o'rganish alohida ahamiyatga ega».¹

Frazeologizmlar asosan shaxs tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, shaxsning u yoki bu tarzdagi tasavvurlari, hatti-harakatlari, fiziologik hamda psixik holatlarini ifodalaydi. Shuningdek, frazeologizmlar hayvonlar obrazini gavdalanitirish va muayyan kasb-korga bog'liqligi jihatidan ham shakllanadi. Shunga ko'ra, shakllanish doirasi bo'yicha frazeologizmlarni 4 katta guruhga ajratish mumkin:

1) shaxs faoliyati va psixikasi bilan bog'liqligi jihatidan shakllangan frazeologizmlar;

2) kasb-korga bog'liqligi jihatidan shakllangan frazeologizmlar;

3) hayvonlar obrazi asosida shakllangan frazeologizmlar;

4) din va dindorlikka bog'liqligi jihatidan shakllangan frazeologizmlar;

Quyida ularning har qaysisiga alohida-alohida to'xtalib o'tamiz.

1. Shaxs faoliyati va psixikasi bilan bog'liqligi jihatidan shakllangan frazeologizmlar.

O'zbek tilida ko'pchilik farazeologizmlar shaxsning faoliyati, psixik holati, kechinmalari, intellektual qobiliyati, emotsiyasi doirasida shakllanadi. Ta'kidlanganidek, «leksika o'z majmuasida voqea-hodisalar, faktlar, jarayonlar nomini ifoda etsa, frazeologizmlar, birinchi navbatda, qayg'u, his-hayajon, tuyg'u, individlarning psixik holati, baxti, sevgi-muhabbati mavzusini, shaxsning sifat ko'rinishlarini ifoda etadi». Darhaqiqat, frazeologizmlar shaxsning u yoki bu psixik

¹ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. –Toshkent, 1992. –B.3.



holati, his-hayajoni, ichki kechinmalari, voqea-hodisalarga munosabatini obrazli, emotsional-ekspressiv ifodalash zarurati asosida shakllangan til hodisasidir.

Tilshunoslikda shaxsning faoliyati va psixik holatini ifodalovchi frazeologizmlarni semantik tavsiflash, ularni ideografik semalar jihatidan tahlil etish bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda shu xildagi frazeologizmlarning o'rganish doirasini emotsional-ekspressiv frazeologizmlar, emotsional-frazeologik maydon, frazeologik onomasiologiya kabi terminlar bilan ifodalanmoqda. Shaxsning mana shunday xislatlarini ifodalovchi frazeologizmlarni semantik to'dalarga ajratib o'rganish bo'yicha ma'lum tadqiqotlar ham olib borilgan. Jumaladan, R.I.Yaransev o'z ishida emotsional frazeologizmlarni semantik qatorlarga ajratib o'rganadi. Ammo lug'atda frazeologik materiallarni berishda bir qator noaniqliklar mavjud. Jumladan, ishda tadqiq etilayotgan materiallar tanlashning aniq chegarasi ko'rinmaydi. Shuning uchun ham emotsional frazeologizmlardan tashqari kishilarning intellektual faoliyati bilan bog'langan frazeologizmlar lug'atdan o'rin olib qolganligi maqsadga muvofiq emas. Fikrimizcha, frazeologik materialni tanlashda nutqda emas, balki, sintaktik qurshovsiz reallashadigan ma'no nuqtai-nazaridan kelib chiqib ish tutilganda ayni muddao bo'lar edi.

O'zbek tilshunosligida ham emotsional-ekspressiv frazeologizmlarni o'rganish, ularni ma'lum guruhlariga ajratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ammo yuqorida zikr qilingan ishlarda, asosan, frazeologizmlarga emotsionallik va ekspressivlik nuqtai nazardan yondashilgan bo'lib, ular faqat semantik jihatdan sharhlanadi. Kuzatishlar esa psixologik holatni ifodalovchi frazeologizmlarning shakllanish xususiyatlari alohida ilmiy tadqiqot etilishi zarurligini ko'rsatadi. Chunki o'zbek tili frazeologizmlarining ko'pchilik qismini shu guruhga tegishli iboralar tashkil etadi. Shuning uchun mazkur guruhga kiruvchi frazeologizmlarning shakllanish xususiyatlarini tadqiq etishni zarur deb hisoblaymiz.

Ishning maqsadlaridan biri frazeologizmlarni ko'rsatilgan doirada o'zakda shakllanish jarayonlarini o'rganishdan iborat bo'lganligi tufayli tilshunoslikda ma'qul deb topilgan turli terminlarni inkor etmay, shaxs faoliyati va psixik holatini ifodalovchi frazeologizmlar terminidan foydalanamiz. Bunda psixika keng ma'nodagi tushuncha ekanligidan kelib chiqiladi. Kishining psixik holati deyilganda, ularning his-hayajoni, emotsiyasi, kechinmalari kabi turli-tuman fiziologik jarayonlar tushuniladi. Kishilarning psixologik holati juda keng va ko'lamli bo'lib, ularning qirralari, variantlari turli-tuman va cheksizdir. Shuning uchun ham tilda psixik jarayonlarni ifodalash uchun maxsus leksemalar va birikmalardan foydalaniladi.



Inson o'zining u yoki bu psixik, emotsional holatlarini ro'yobga chiqarish jarayonida u yoki bu voqea-hodisadan quvonadi, g'azablanadi, ajablanadi, tashvishlanadi, azoblanadi, o'kinadi, hayratlanadi, taajublanadi, vahimaga yoxud qo'rquvga tushadi, qahrilanadi, nafratlanadi, qarg'aydi, so'kadi, hurmatsizlik qiladi, uyaladi, andishaga boradi, jahlgga minadi, mas'uliyatsizlik qiladi va hokazo. Shu kabi holatlarni ifodalash maqsadida tilda turli tuman frazeologizmlar shakllangan.

Tadqiqotimizdan shu narsa ayon bo'ldiki, shaxs faoliyati va psixikasi doirasida shakllangan frazeologizmlar tarkibida asosan ruhiy holatni ifodalovchi leksemalar ishtirok etadi. Masalan, *ko'ngil, es, ruh, sevinch, dimog', jon, kayf* kabi abstrakt leksemalar frazeologizmlar tarkibida semantik tayanch a'zo vazifasini utaydi.

Ta'kidlanganidek, shaxsning psixik holati doirasida shakllangan frazeologizmlar tarkibida kamida bitta ruhiy holatni ifodalovchi leksema ishtirok etishi kerak. Masalan, *ko'ngil* leksemasi semantik tayanch a'zo sifatida turli psixik holatlarni ifodalovchi frazeologizmlar tarkibida qo'llanadi. Bu leksema ishtirokida shakllangan frazeologizmlar kishilarning turli kechinmalari, his-tuyg'ulari bilan bog'liq bo'ladi. Bunday frazeologizmlar quyidagi psixik holatlarni ifodalaydi: Yaxshi kayfiyat, xotirjamlik, moyillik; *ko'ngliga o'tirmoq, ko'nglini tog'day ko'tarmoq* bular birikmaga teng qurilishli fe'l frazeologizmlardir: *ko'ngli yorishda, ko'ngli joyiga tushdi, ko'ngli yozildi, ko'ngli ko'tarildi, ko'ngil ochildi, ko'ngli ravshan tortdi, ko'ngil xush bo'ldi, ko'ngil o'sdi* (bular gapga teng qurilishli fe'l frazeologizmlardir); *ko'ngil chog', ko'ngil xush, ko'ngil butun, ko'ngil ravshan, ko'ngil bor* va boshqalar.

O'zbek tilida *dam* leksemasi ishtirokida aytishi lozim bo'lgan fikrni aytolmaslik holatini ifodalovchi *dami ichida, dami ichida qoldi, damini bosmoq, damini ichiga yutmoq, damini kesmoq, dami chiqmadi* kabi kishining hordiq chiqarishi bilan bog'langan *dam emog, dam olmoq* singari, bir lahzalik ma'nosini ifodalovchi *dam o'tmay* kabi frazeologizmlar shakllangan.

Ko'rinadiki, frazeologizmlarning shakllanish jarayonida u yoki bu leksemalarning o'ziga xos o'rni bor. Psixik jarayonlar, holatlar bilan bog'liq frazeologizmlar tarkibida kamida bitta mavhum (abstrakt) leksema semantik tayanch a'zo bo'lib ishtirok etishi shart. Bu leksemalar shakllangan frazeologizm uchun mantiqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiq etilgan frazeo-semantik guruhlar shaxs faoliyati va psixikasining butun qirralarini qamrab olgan deya olmaymiz. Shaxs psixikasining boshqa ayrim tomonlari frazeo-semantik tahlil etilgan.

2. O'zbek xalqi turmushi voqeligi asosida shakllangan frazeologizmlar.



Inson ongli hayotidan boshlab mehnat bilan shug'ullanib boshlaydi. Menat jarayonida esa xilma-xil ishlar bajarib kelgan. Pirovardida, mehnat jarayonida bajarilgan u yoki bu xatti-harakatlar kishilarda muayyan lisoniy assotsiatsiyalarni uyg'otadi. Shu tufayli biror fikrni obrazli ifodalashga ehtiyoj seziladi. Ayni shu holat kishilarning kasb-koriga, uy-ro'zg'or tarziga aloqador frazeologizmlarning ham shakllanishiga sabab bo'lgan deb o'ylaymiz. Bunday frazeologizmlarning shakllanishida quyidagi leksik-semantik guruhlariga oid voqelik bilan ifodalangan obrazli tushunchalar asos qilib olingan.

O'zbek tilida yuzaga kelgan frazeologizmlarining bir qismi ma'lum kasb-kor egalarining faoliyati bilan bog'liq to'plangan materiallar tasdiqlaydi. Kasb-kor egalari muayyan ishlarini o'ziga xos xatti-harakat bilan bajaradi. Ana shunday jarayon til egalarida xilma-xil assotsiatsiyalarni yuzaga keltiradi. Bu esa frazeologizmlarning shakllanishi uchun real sharoit yaratadi. Natijada, turli kasb-korga bog'liq bo'lgan voqelikni gavdalantirish asosida frazeologizmlar shakllanadi va ular tilning xizmat doirasiga o'tadi.

Lisoniy jihatdan qaraladigan bo'lsa, bunday frazeologizmlarning: 1. Mantiqiy asoslari erkin bog'lanmaga ega bo'ladi. 2. Erkin bog'lanmadan ma'nolari nuqtai nazaridan farqlanadi. 3. Tarkibidagi leksemalar o'z ma'no mustaqilligini to'liq saqlamaydi. 4. Har birining asosida muayyan kasb-kordan olingan obraz yotadi. 5. Erkin bog'lanma obraziga asoslanadigan umumlashma ma'no yuzaga keladi.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqilganda, frazeologizmlarning turli kasb-korga bog'liqligi jihatidan shakllanish xususiyatlarini o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Turli uy-ro'zg'or va kasb-korga bog'liqligi jihatidan paydo bo'lgan frazeologizmlar quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Uy-ro'zg'or buyumlari asosida shakllangan frazeologizmlar.

Bu frazeologizmlar kundalik turmushda qo'llanadigan uy-ro'zg'or buyumlari nomlarining mantiqiy asosidan kelib chiqib umumlashadi va umumtil miqyosida voqe bo'ladi. Shakllangan frazeologizmlar: a) birikmaga teng qurilishli

po'stagini qoqqoq, sovuniga kir yuvmaslik, yumshoq supurgi bo'lmoq (varianti *muloyim supurgi bo'lmoq*), *chirog'ini yoqib o'tirmoq, chig'irikdan o'tmoq, ko'rpa-yostiqliq qilib yotmoq, ko'rpa-siga qarab oyoq uzatmoq* kabi fe'l frazeologizmlar bo'ladi. Bu frazeologizmlarning uy-ro'zg'or buyumlari nomlarining mantiqiy asosidan kelib chiqilganligini quyidagi misollar ham tasdiqlaydi: *Hali ham soddasiz, Qo'chqorov, shuncha chig'iridan o'tib ham pishmabsiz.* (Shuhrat). *Keyin boshini ikkita kilib qo'ysam, dadasi bilan mening chirog'imni yoqib o'tirsa deyman, xolos deydi bechora.* (H.Nazir) Keltirilgan *chirog'ini yoqib o'tirmoq* «vafot etgan kishining



nomini abadiy qilmoq, uy yumushlarini davom ettirmoq, uyiga egalik qilmoq» kabi frazeologik ma'noning yuzaga kelishiga uy-ro'zg'orda qo'llanadigan voqelikni obrazli gavdalantirish sabab bo'ladi. Haqiqatdan, *chiroqni yoqib o'tirmoq* deyilganda vafot etgan kishining xonadonida yana kimdir yashayotganligini, uning ishini davom ettiradigan kimdir mavjudligini tasdiqlaydi. Masalan: *Men Toshkentga borib, uning chirog'ini yoqib o'tirishim kerak.* (M.Qorayev). Tilimizdagi *po'stagini qoqmoq* frazeologizmining mantiqiy asosi uy-ro'zg'or buyumlarining nomi va shu voqelikni obrazli ifodalash asosida shakllanib, «ayovsiz tanqid qilmoq» frazeologik ma'nosi yuzaga kelgan. Aslida *po'stak qoqmoq* uy-ro'zg'or buyumi bo'lmish *po'stakni* chang-chungdan tozalash nazarda tutiladi. So'ngra, erkin bog'lanmaning «*po'stakning chang-chungini tozalash*» ma'nosi orqa planga o'tib, kishilarga nisbatan qo'llanishi asosida yuzaga kelgan «ayovsiz tanqid qilmoq» ma'nosi birinchi planga chiqadi. Bu yangi ma'no komponentlarning umumiy yig'indisidan kelib chiqmay, ular asosida yuzaga kelgan ustama, ko'chma ma'no sifatida shakllanadi. Masalan: *YOshligimdayoq «bu sening amring» deb qishloq imomining og'zidan chiqishi bilan ro'za tutmagan, namoz o'qimagan, fitr ro'za bermaganning po'stagini qoqdim, qo'li egrilarning ta'zirini berdim* (Shuhrat).

Uy-ro'zg'or buyumlari aossida shakllangan frazeologizmlar turli qurilishli bo'ladi: «ichiga chiroq yoqilganday bo'ldi», «ichiga chiroq yoqsa, yorishmaydi», «kosasining tagi oqarmaydi», «mag'zavasi chiqdi», «ola xurjun elkasiga tushdi» kabi gapga teng qurilishi fe'l frazeologizmlar shakllanadi. Misol: *Adash karvon boshini ming tomonga urdi, ammo kosasining tagi oqarmadi.* (X.Sultonov). *-Men kambag'aldan chiqqanman, pichoq o'z sopisini kesmaydi, - debdi.* (Shuhrat). *Yostig'ini quritmoq* birikmaga teng qurilishli frazeologizm ham uy-ro'zg'or buyumlari doirasida shakllanadi: *Sodiq shu mo'ylovsifat qoshlarga qarab turib, o'yga toldi: qo'rboshiligida bu qoshlarning bir chimirilishi qanchadan-qancha odamning yostig'ini quritgandir!* (Shuhrat).

Shuningdek, *bir-ikki yaktakni ortiqroq yirtgan, besh-oltita ko'ylakni ortiqroq yirtgan; nomi ulug', suprasi quruq; pichoqqa ilinadigan, tarozi bosadigan, kurakda turmaydigan, yog' tushsa-yalagudek, yumaloq-yostiq qilib, ko'zmi po'stakning yirtig'imi?! boy bo'lib boltasi yo'q, gadoy bo'lib xaltasi yo'q* kabi frazeologizmlar shu guruh asosida shakllanadi. Misol: *Biroq bu xursandchilik uzoqqa bormadi. Bir kuni Zinger boy shayton aravaga minib «odam o'ldirgan» degan kurakda turmaydigan gap chiqib qoldi.* (A.Qahhor). *Tagli-taxtli kuyov, albatta, uning so'zini ikkita qilmas, farzand o'rnini bosishi mumkin edi. Shu bois Azizani yumaloq yostiq qilib uzatdi qo'ydi.* (Shuhrat).



Keltirilgan misollardan mazkur guruhda turli leksik-grammatik guruhlarga tegishli frazeologizmlarning shakllanish darajasi bir xil emasligi ko'rinib turibdi. Bunda ko'proq fe'l frazeologizmlarning ko'p shakllanganligi ko'zga tashlanadi. Ammo shuni alohida qayd etish lozimki, bunday frazeologizmlarning nutqda qo'llanish darajasi juda yuqoriligi bilan ajralib turadi.

2. Pazandachilikka bog'liqligi jihatdan shakllangan frazeologizmlar.

O'zbek tilining leksik tarkibida pazandachilikka oid leksemalar o'ziga xos o'rinni egallaydi. Avvalo shuni qayd etish lozimki, pazandachilik bilan aloqador xilma-xil lisoniy assotsiatsiyalar shu kasb-kor egalarining ish jarayoni, qolaversa, ular tomonidan tayyorlangan taomlarning u yoki bu xususiyatlari muayyan obrazlarning shakllanishiga asos bo'lgan. Mana shu obrazlilikka bog'liq holda ko'plab frazeologizmlar shakllangan. Masalan, *zuvalasi pishiq* frazeologizmi xamir qorish bilan bog'liq voqelikni obrazli ifodalash asosida shakllanadi. Xamir qanchalik ko'p qorilsa, ishlov berilsa, u shunchalik sifatli, xamirdan olingan zuvalalar esa pishiq bo'ladi. Shu voqelik kishilarga nisbatan ishlatilib «a'zoyi badani chiniqqan» kabi ko'chma ma'no yuzaga keladi. Bunda ekrin bog'lanmaga xos bo'lgan ma'no konkretlikdan mavhumlikka siljish asosida frazeologik ma'no shakllanadi.

Keltirilgan dalillardan pazandachilikka bog'liqligi jihatdan qator leksik-grammatik guruhga tegishli frazeologizmlar shakllanganligi ayon bo'lmoqda. Shunisi ham borki, bu guruhda, asosan, birikmaga va gapga teng qurilishli fe'l frazeologizmlar shakllangan.

3. Tibbiyotga bog'liqligi jihatdan shakllangan frazeologizmlar.

To'plangan materiallarga suyanib shuni qayd etish mumkinki, muayyan nolisoniy omillar ta'sirida tibbiyot doirasida shakllangan frazeologizmlar ham ona tilimizda keng qo'llanib kelmoqda. Bunday frazeologizmlarning asosini tibbiyot jarayonidagi voqelikni ifodalovchi erkin bog'lanmalar tashkil etadi. Aynan shu voqeali kuni obrazli ifodalash ehtiyoji asosida qator frazeologizmlar shakllanadi. Masalan: *sog' tishini sug'urib olmoq* frazeologizmi nutqda erkin bog'lanma tarzida ham ishlatiladi. Bunda u og'rigan tishni emas, balki og'riq bermagan sog' tishni sug'urib olish jarayonidagi voqelik bilan bog'liq holatni ifoda etadi. Ana shu voqelikni obrazli gavdalantirish asosida «o'ziga o'zi tashvish orttirmoq» kabi frazeologik ma'no yuzaga keladi: **-Sog' tishingizni sug'urib oladilar. Bu erda «xalq posbonlari» ishlaydi. Oliy ma'lumotli huquqshunoslar...**(S.Soliev)

Misollar tahlilidan turli tillarda frazeologizmlarning mazmun planida xilma-xilliklar mavjudligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu holat shu xalqlarning tabiiy yashash sharoitlari, madaniy va diniy an'analari va hokazo omillar bilan uzviy bog'liqdir.



Ayrim frazeologizmlarning shakllanishida ko'p tillarda bir xil nomlarning qo'llanishi shu xalqlarning yashash tarzlari, hayotiy tushunchalariga ham bog'liq. Hamma xalqlarda ham vatan tuyg'usi, uni sevish, ardoqlash hissi, ishyoqmaslarni yomon ko'rish, qo'rqqoqlardan jirkanish his-tuyg'usi bor. Bu kabi fiziologik holatlar, emotsional munosabatlarni ijobiy yoki salbiy jihatdan tilda zuhr etish ixcham va chuqur ma'noli frazeologizmlar orqali ifodalanadi va ular ana shunday ehtiyojlar asosida shakllanadi.

Hanuzgacha frazeologizmlarni "tor" va "keng" ma'noda tushunish davom etmoqda. Bizningcha frazeologiyani "keng" ma'noda ham, "tor" ma'noda ham tushunish mumkin emas. Frazeologiya bahsida frazeologizmlarni, ularning turli xususiyatlarini o'rganish zarur. Frazeologizmlar tilning alohida rasmiylashgan birligi bo'lib, tuzilishiga ko'ra erkin bog'lanmaga yoki gapga teng, komponentlari to'liq yoki qisman semantik qayta shakllangan, obrazli turg'un so'z birikmalarini o'z ichiga oladi. Frazeologiya tarkibida o'rganilayotgan maqol, matal, aforizm, hikmatli so'z, topishmoqlar alohida o'rganishni talab etadigan o'ziga xos mavzulardir. Bu til birliklarining o'zgacha nomi, o'zgacha til xususiyatlari mavjud. Shu ma'noda, ularni frazeologiya obyekt bilan aralashtirmaslik lozim. Ma'lumki, frazeologizmlarning farqlovchi belgilari bittagina emas, balki bir nechta belgilar yig'indisidan iboratdir. Ammo bu belgilar ichida uning etakchisini aniqlashda bir xillik ko'rinmaydi. Shu bois frazeologizmlarga xos etakchi belgilarni aniqlash zarur bo'ladi. Tadqiqotlar obrazlilik va semantik qayta shakllanish bu belgilar ichida etakchi ekanligini ko'rsatadi. Buni quyidagi bog'lanmalarning turlari va ularning beliglari asosida izohlash mumkin:

- 1) erkin bog'lanma – alohida rasmiylashgan;
- 2) turg'un bog'lanma - alohida rasmiylashgan, tarkibi barqaror, yaxlitligicha qo'llanadi, tayyor holda mavjud;
- 3) frazeologizm - alohida rasmiylashgan, tarkibi barqaror, yaxlitligicha qo'llanadi, tayyor holda mavjud, obrazlilikka ega, semantik qayta shakllangan.

Ko'rinadiki, frazeologizmlar uchun bitta belgi etarli emas. Chunki ular bir qancha belgilar yig'indisidan iborat til birliklaridir. Bular ichida obrazlilik va semantik qayta shakllanish etakchi belgilar sanaladi. Frazeologik birlik bo'lishi uchun so'zlarning turg'un birlashmasi obrazli ma'no, ko'chma ma'no anglatishi shart² Shuning uchun ham frazeologizmlar alohida rasmiylashgan, obrazli va ko'chma ma'no ifodalaydigan til birliklaridir.

² Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. –Toshkent, 1992. –B.3.



O‘zbek tilshunosligida ham frazeologizmlar anglatgan yaxlit ma’no bilan ular tarkibidagi leksemalar ifodalaydigan ma’nolar orasidagi munosabat asosida frazeologik butunlik, frazeologik qo‘shilma, frazeologik chatishma kabi turlarga ajratiladi. Bunday leksik-semantik tasnif rus tilshunosi V.V.Vinogradov tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, qator tillarga tadbiq etildi. Jumladan, o‘zbek tilshunosligi ham bunday tasnifdan chetda qolmadi.

V.V.Vinogradov frazeologizmlarning uch tipini ko‘rsatadi:

1. Frazeologik chatishma (frazeologicheskoe srashenie) yoki idioma. Bunda muayyan obraz gavdalanadigan, leksemalarning ekvivalenti sifatida qatnashadigan birliklarni nazarda tutadi va “spustya rukava”, “vot tak klyukva”, “kak bi ne tak” kabi misollarni keltiradi.

2. Frazeologik butunlik (frazeologicheskoe edinstvo). Bunda muayyan obraz gavdalanadigan, yaxlit ma’no ifodalaydigan, leksik komponentlari ma’nolarining birlashuvidan kelib chiqadigan birliklarni tushunadi va fikrining tasdig‘i sifatida “melko plavat”, “perviy blin”, “plit protiv techenie” kabi misollarni keltiradi.

3. Frazeologik qo‘shilma (frazeologicheskoe sochetaniya). Bunda bir komponentning ko‘chma ma’noga ega bo‘lishi va bu komponent ma’lum bir qurshovdagina frazeologik ma’no kasb etishini ta’kidlaydi. Bunday frazeologizmlarga “strax beret”, “toska beret”, “smex beret” kabi misollarni kiritadi. V.V.Vinogradovning fikri ilmiy ahamiyatga ega ekanligini e’tirof etish bilan birga, uning qarashlari qator tilshunoslar tomonidan tanqid ham qilindi. Jumladan, N.N.Amosova va boshqalar.

Vinogradovning fikriga suyaniladigan bo‘linsa, frazeologik butunlik tarkibiga texnik va ilmiy birikma terminlar, qanotli so‘z va birikmalar, kalamburlar, maqol va matallarni ham kiritishga to‘g‘ri keladi. A.Mamatov shunday yo‘l tutilsa, frazeologizmning doirasi yanada kengayib ketishi ayon bo‘lishini, chunki ular ichida semantik qayta shakllanmagan va ko‘chma ma’nolanmagan turlari ham bir talay ekanligini hisobga olish va ularni boshqacha bir tarzda guruhga kiritish lozim degan fikrni jamoatchilik hukmiga havola etadi³.

O‘zbek tilshunosligida ham frazeologizmlar V.V.Vinogradov fikrlari asosida tasnif qilindi. Chunonchi, frazeologizmlarni o‘rganishga bag‘ishlangan ishlarda bu lug‘aviy birliklar uch guruhga ajratilgan bo‘lsa, boshqa ishlarda ikki guruhga bo‘linadi. Bu tasniflar frazemadan yaxlitligicha anglashiladigan ma’no bilan uning tarkibidagi leksemalar anglatadigan ma’nolar orasidagi munosabatlarning

³ Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari. Filol. fan. doktori...diss. avtoref. –Toshkent, 1999. –B.22.



xususiyatlariga asoslanadi. Jumladan, frazeologik qo'shilmaga "ma'nosi tarkibidagi so'zlarning (komponentlarning) bosh yoki yasama ma'nolaridan iborat bo'lgan turg'un iboralar frazeologik qo'shilma deyiladi" deb ta'rif berilib, "qo'l ko'tarmoq", "o'qqa tutmoq", "ishtahasi ochildi" kabi misollar keltiriladi.

Frazeologik birlashmaga "tarkibidagi so'zlarning ma'nolaridan kelib chiqadigan asl, real ma'nodan tashqari, butun holda ko'chma ma'noda qo'llanadigan turg'un iboralar" kiritilib, "xamir uchidan patir", "misi chiqdi", "loy bo'lmoq", "tuyog'ini shiqillatmoq" kabi misollar qayd etiladi.

Frazeologik chatishmaga esa "tarkibidagi so'zlarning ham o'zaro ham umumiy ma'noga nisbatan bo'lgan ma'no munosabatlari unutilgan turg'un iboralardir" kabi ta'riflanib, "taqdirga tan bermoq", "dimog'i chog' bo'ldi", "toqati toq bo'ldi", "juftakni rostlamoq", "pixini yorgan" kabilar misol sifatida keltiriladi¹.

Agar keltirilgan ta'riflarga asoslaniladigan bo'lsa, frazeologik ob'ekt kengayib ketadi. Frazeologik ob'ekt haqida rus tilshunoslari turli xil belgilarni asos qilib oladilar. Jumladan, A.I.Smirnitskiy frazeologik xususiyatning eng muhim belgisi "so'zga muqobillik" deb ta'kidlaydi. N.Amosova "muqim kontekstli" bo'lishini e'tirof etsa, S.Govrin "funktional-semantik butunlik" asosiy mezon deb hisoblaydi. A.V.Kunin esa frazeologiyani "keng" ma'noda tushunib, uning ob'ektiga "murakkab ma'noli" barcha turg'un birikmalarni kiritadi.

Frazeologizmlarning shakllanish asoslari juda keng bo'lib, tilda muhim ifodaviy vazifalarni bajaradi. Frazeologik tizim tilning leksik va grammatik tizimlariga tayanadi. Frazeologizmlar leksemalardan tashkil topadi, o'sha tilning grammatik qurilishi asosida shakllanadi. Shu bilan birga frazeologizmlarning shakllanish xususiyatlari mavjud.

Birinchi navbatda frazeologizmlarning yuzaga kelishi so'zlovchining obrazli-ekspressiv ifodalash ehtiyoji bilan bog'liq bo'ladi. U yoki bu tarixiy davrda u yoki bu milliy xususiyatlarni, narsa-perdmet, hodisalarni obrazli-ekspressiv ifodalash ehtiyoji tug'iladi. Qaysi davrda shunday ehtiyoj zarurati ko'p tug'ilsa, shunchalik frazeologizmlar ko'p shakllanadi.

Frazeologizmlarning shakllanishida nolisoniy omillar alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalqining milliy o'ziga xosligi frazeologizmlarda aniq ravshan aks etgan bo'ladi. Shuning uchun ham frazeologizmlarning aksariyat qismi milliy xarakterga ega bo'ladi.

Frazeologizmlashtirish lisoniy ko'ptomonlama hodisa bo'lib, ular o'z ifodalash uslubiga ega bo'ladi. Frazeologizmlar tilning boshqa bosqichlaridan, jumladan,

¹Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili. –Toshkent, 1978. –B.45-47.



fonema, morfema, leksemalardan yuqori turuvchi murakkab leksik-grammatik shakl ekanligi bilan xarakterlanadi.

Milliy o'ziga xoslik frazeologizmlarning grammatik qurilishida, leksik, stilistik, fonetik va semantik xususiyatlarida ham ko'rinadi.

O'zbek tilida frazeologizmlarning ko'pchilik qismi shaxsning psixologik holatini, ichki kechinmalarini ifodalash zarurati asosida shakllanadi. Shuningdek, kasb-kor doirasida ham bir qator frazeologizmlar shakllanadi. Shaxsning psixologik holati bilan bog'liq holda shakllangan frazeologizmlar spontan xarakterga ega bo'ladi. Turli kasb-korga bog'liqligi jihatidan shakllangan frazeologizmlarning asosini esa erkin bog'lanmalar tashkil etadi. Bular nutq ehtiyoji bilan frazeologizmlashtiriladi.

O'zbek tilida leksik-grammatik jihatdan asosan fe'l frazeologizmlar ko'p shakllanadi. Ot frazeologizmlar kam shakllanadi. Fikrimizcha, frazeologizmlarning nominativ vazifasidan ko'ra obrazli ekspressiv ifodalash xususiyati ustun turishi fe'l frazeologizmlarning ko'proq shakllanishiga asos bo'ladi.

O'zbek tili frazeologizmlari quyidagi to'rt derivatsion baza asosida shakllanadi: 1. Faol leksemalarning mantiqiy (motivatsion) asosi. 2. Erkin bog'lanmalar va gaplar. 3. Umumtil frazeologizmlari. 4. O'ziga til materiallari. Derivatsion asos bilan birga, quyida uch frazeologik shakllanish jarayonlari mavjud: 1. Frazeologik integratsiya va frazeologik differentsiatsiya, ya'ni leksemalarning o'ziga xos kombinatsiyasi. Kombinatsiya asosida til birligi (nominativ birlik) yuzaga keladi. 2. Semantik qayta shakllanish yoki frazeologik transpozitsiya, ya'ni erkin bog'lanma yoki gapni o'ziga xos bo'lmagan ma'noda va vazifada qo'llash. 3. Umumtil frazeologizmlari asosida yangi frazeologizmlarning shakllanishi yoki frazeologik modernlashtirish.

Individual-muallif frazeologizmlar ham xuddi uzual frazeologizmlardagi kabi til qonuniyatlari asosida shakllanadi.

Xullas, frazeologizmlarda eksperssivlikka boy bo'lgan nutqiy vositalar bo'lib, ular orqali ifodalanadigan ma'nolar ko'p qirralidir va turli omillar asosida shakllanadi.

Yuzaga kelgan bu holatda frazeologizmlarning murakkab til hodisasi ekanligi va bu hodisaning o'zaro zid hollari mavjudligi qayd etiladi. Bu esa frazeologik boylikni sistemalashtirish va nazariy-amaliy tadqiq etishni qiyinlashtiradi. Turg'un birikmalarning barchasi frazeologiya tarkibidan yoki aksincha, ayrim frazeologizmlar birikma terminlar qatoridan o'rin olib qolmoqda.



Frazeologizmlarning farqlovchi belgilari bittagina emas, balki bir nechta belgilar yig'indisidan iborat. Ammo bu belgilar ichida uning etakchisini aniqlashda bir xillik ko'rinmaydi. Bu esa frazeologik ob'ektning chegaralarini to'la-to'kis belgilash imkonini bermaydi. Hozirgi bosqichda alohida rasmiylashgan, tarkibning barqarorligi, yaxlitligicha qo'llaniladigan, tayyor holda mavjudlik, obrazlilik, semantik qayta shakllanish kabilar frazeologizmning belgilari sifatida ko'rsatiladi. Bu belgilarning barchasi frazeologizmlarga xos. Ammo bularning ko'pchiligi boshqa birikmalarga, jumladan, erkin va turg'un bog'lanmalarga ham xosdir. Shu bois, frazeologizmlarga xos etakchi belgilarni aniqlash zarur hisoblanadi. Tadqiqotlar obrazlilik va semantik qayta shakllanish bu belgilar ichida etakchi ekanligini ko'rsatadi.

Frazeologizmlar uchun bitta belgi yetarli emas. Chunki ular bir qancha belgilar yig'indisidan iborat til birliklaridir. Bular ichida obrazlilik va semantik qayta shakllanish etakchi belgilar sanaladi. Frazeologik birlik bo'lishi uchun so'zlarning turg'un birlashmasi obrazli ma'no, ko'chma ma'no anglatishi shart. Shuning uchun ham frazeologizmlar alohida rasmiylashgan, obrazli ko'chma ma'no ifodalaydigan til birliklaridir.

Frazeologizmlarda so'zlovchining voqea, belgi, narsa-predmetga nisbatan bo'lgan sub'ektiv ijobiy yoki salbiy munosabatlari o'z aksini topadi. Bu munosabat orqali frazeologizmlar nutqning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, iboralar ularning semantik va stilistik xususiyatlariga tayanib qo'llanilgan uslubiy vositalar o'quvchida badiiy tilning shakl va mazmun tizimiga tag, ya'ni yashirin ma'no nozikliklariga alohida e'tibor uyg'otadi, shu bilan birga chuqur mushohada qilishga undaydi.

O'zbek tilida frazeologizmlar ma'no jihatdan shakllanadi. Frazeologizmlarning ma'no xususiyatlari ularni boshqa til birliklaridan farqlovchi asosiy belgilardir.

Frazeologizmlarning ma'nolari semantik qayta shakllanish asosida yuzaga keladi. Ayni shu masalani o'rganish chog'ida ularda transpozitsiya ro'y berishi aniqlanadi. Transpozitsiya bu - til elementlarining o'ziga xos bo'lmagan vazifa va ma'noda qo'llanishidir. Transpozitsiyada erkin bog'lanma yoki gapning to'g'ri ma'nosidan kelib chiqmaydigan frazeologik ma'no yuzaga keladi. O'zbek tilida frazeologizmlarning aksariyati transpozitsiya asosida yuzaga keladi.

Frazeologizmlar nutqning ta'sirchanligini oshirish vositasi bo'lganligi, emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi birlik bo'lganligi bois, ularni bir tildagisining ikkinchi tildagi sinonimlarini qiyosiy o'rganish muhim hisoblanadi. Chunki ibora



anglatayotgan ma'no, ijobiy yoki salbiy, qo'pol yoki muloyim va bir nechta ma'no ottenkalariga ega bo'lishi mumkin.

Frazeologizmlarning shakllanishida hamda nutqning ta'sirchanligini oshirishda frazeologik sinonimlar va variantlilik ham jozibali, obrazli ifodalanishda muhim til birikmalari hisoblanadi.

Demak, xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, frazeologizmlar uslubiy - semantik jihatdan shakllangan obrazli til birliklari hisoblanib, badiiy asar tili, yozuvchi va shoirlar mahoratini ko'rsatuvchi nutqning emotsionalligi, ta'sirchanligini ifodalovchi vositalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. –Toshkent, 1992. –B.3.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. –Toshkent, 1992. –B.3.
3. Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari. Filol. fan. doktori....diss. avtoref. –Toshkent, 1999. –B.22.
4. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili. –Toshkent, 1978. –B.45-47.
5. Norov, I. K., Shirinova, N. A., & Yuldasheva, S. S. (2020). BADIY ASARNI TAHLIL QILISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH. In Молодой исследователь: вызовы и перспективы (pp. 124-126).
6. Norov, I., & Xaytbayev, O. (2023). TIL TA'LIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUV. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(9), 65-72.
7. Jemal, G., & Norov, I. (2021). Avlodlar Dovoni Asarida Onomastik Birliklar. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI, 1(5), 77-79.
8. Norov, I., & Xaytbayev, O. (2023). SHAXS MA'NAVIYATIDA UZLUKSIZ TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH. The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development, 1(6), 36-39.
9. Norov, I. (2024). TEACHING INDEPENDENT VOCABULARY BASED ON MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES. Fan va Tadqiqot Samaralari, 1(1), 27-33.
10. Norov, I., & Xaytbayev, O. (2023). SHAXS MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISH. The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development, 1(6), 32-35.
11. Norov, I. (2024). ZONIMLARNING BADIY ASARLARDA ISHLATILISHI. Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения, 2(1), 12-15.
12. Norov, I. (2023). BOLALAR ADABIYOTIDA ZONIMLAR O'RGANILISH DARAJASI. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(6 (INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCHER)), 195-198.



13. Norov, I. (2024). ONA TILI DARSLARIDA FRAZEOLOGIZMLARNI O'RGATISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI. *International innovation and researches*, 1(1), 49-55.
14. Norov, I. (2024). A SYSTEMATIC STUDY OF THE VOCABULARY OF THE LANGUAGE. *Fan va Tadqiqot Samaralari*, 1(1), 23-26.
15. Norov, I. (2024). MUTUAL INTEGRATION OF SUBJECTS IN PRIMARY EDUCATION. *Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения*, 2(5), 6-8.
16. Norov, I. (2024). TILNING LUG 'AT BOYLIGINING SISTEMA SIFATIDA TADQIQ QILINISHI. *Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari*, 2(5), 13-15.
17. Norov, I. (2024). O 'ZLASHMA SO 'ZLARGA MUQOBILLAR TANLASH MUAMMOLARI. *Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения*, 2(1), 25-27.
18. Norov, I. (2024). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTEGRATSIYA. *The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development*, 2(5), 6-8.
19. Norov, I. (2024). O 'RTA UMUMIY TA'LIMNING IKKINCHI BO 'QINIDA O 'ZBEK TILI (DAVLAT TILI) NI O 'QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 2(5), 24-29.
20. Norov, I. (2024). BOLALAR FOLKLORIDA ZONIMLAR. *Academic Book*, 1(1), 6-10.
21. Norov, I. (2024). XALQARO TA'LIM DASTURLARI. *Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari*, 2(3), 6-9.
22. Norov, I. (2024). MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA INDIVIDUAL NEOLOGIZMLARNING LINGVOPOETIK TAHLILI. *The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development*, 2(1), 24-27.
23. Norov, I. (2024). UMUMTIL VA INDIVIDUAL NEOLOGIZMLARNING XUSUSIYATLARI. *Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения*, 2(1), 21-24.
24. Norov, I. (2024). TILNING MUAYYAN LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 2(1), 91-96.
25. Kamoliddin O'g'li, I. N. (2021). Alpomish Dostonida Onomastik Nomlar Tahlili. *IJTIMOYIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(5), 180-182.
26. Samad o'g'li, R. S., & Kamoliddin o'g'li, I. N. (2021, October). Reforms in Education. In "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 138-140).